

## O'ZBEKISTON HAYVONLARINI MUHOFAZA QILISH

*Temirova Mehriniso Ashraf qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekistonning boy biologik xilma-xilligini saqlab qolish va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlarni muhofaza qilish muammolariga bag'ishlangan. Unda turar joylarning yo'q qilinishi, iqlim o'zgarishi va brakonerlik kabi asosiy muammolar yoritilgan. Shuningdek, qo'riqxonalar tashkil etish, qonunchilikni kuchaytirish, jamiyatni xabardor qilish va ilmiy tadqiqotlar orqali muhofaza qilish tadbirlari muhokama qilingan. O'zbekistonning "Qizil kitob"i yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini ro'yxatga olish va ularni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Maqolada jayron, Turon yo'lbarsi, Amudaryo kurakburuni kabi muhim hayvon turlarini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. O'zbekiston hayvonlarini muhofaza qilish ekologik muvozanatni tiklash va kelajak avlodlarga tabiiy boyliklarni yetkazish uchun muhim ekani ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** biologik xilma-xillik, muhofaza, brakonerlik, jayron, qo'riqxonalar, O'zbekiston, Qizil kitob, ekologik barqarorlik.

### ЗАЩИТА ЖИВОТНЫХ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация:** Данная статья посвящена сохранению богатого биологического разнообразия Узбекистана и решению проблем, связанных с угрозой исчезновения ряда видов животных. В статье рассматриваются основные проблемы, такие как утрата мест обитания, изменение климата и браконьерство. Также обсуждаются меры по защите животных, включая создание заповедников, усиление законодательства, повышение осведомленности общества и проведение научных исследований. Особое внимание уделяется значению Красной книги Узбекистана, которая играет важную роль в учете и охране видов, находящихся под угрозой исчезновения.

В статье представлены подробные данные о мерах, направленных на сохранение таких важных видов, как джейран, памирский тигр и рыбы Амударьи. Подчеркивается, что охрана животных Узбекистана важна не только для сохранения биологического разнообразия, но и для восстановления экологического баланса и передачи природного богатства будущим поколениям.

**Ключевые слова:** биологическое разнообразие, охрана, браконьерство, джейран, заповедники, Узбекистан, Красная книга, экологическая устойчивость.

## PROTECTION OF ANIMALS IN UZBEKISTAN

*Annotation: This article is dedicated to preserving Uzbekistan's rich biological diversity and addressing issues related to the threat of extinction for several animal species. It examines key problems such as habitat loss, climate change, and poaching. The article discusses measures for animal protection, including the establishment of reserves, strengthening legislation, raising public awareness, and conducting scientific research. Special attention is given to the significance of Uzbekistan's Red Book, which plays a vital role in cataloging and protecting endangered species. Detailed information is provided about efforts to preserve key species such as the gazelle, the Pamir tiger, and fish of the Amu Darya. The article emphasizes that protecting Uzbekistan's wildlife is crucial not only for maintaining biodiversity but also for restoring ecological balance and passing on natural wealth to future generations.*

**Keywords:** biodiversity, conservation, poaching, gazelle, reserves, Uzbekistan, Red Book, ecological sustainability.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatlarni yaxshilash, shuningdek bioxilmassillikni saqlab qolish hamda undan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yovvoyi hayvonlarning tabiiy zotga oid turlarining, ayniqsa, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan

turlarining barqaror yashashi uchun sharoitlarini ta'minlash hamda saqlab qolish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga yirtqich va zaharli yovvoyi hayvonlarni yarim erkin sharoitlarda yoki tutqunlikda saqlash, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish, ularni jamoat joylarida sayr qildirishning turli hodisalarga olib kelishi hollari uchrayotganligi aholining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida qonun hujjatlarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan yovvoyi hayvonlarni saqlashni tartibga solish maqsadida "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida jismoniy shaxslar tomonidan saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarning ro'yxatini, shuningdek mazkur ro'yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibini belgilash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zimmasiga yuklatilmoqda.

Ushbu Qonun yovvoyi hayvonlarni saqlash hamda ulardan turli maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq hollarda aholining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga, shuningdek vakolatli davlat organining ushbu yo'nalishdagi javobgarligini oshirishga xizmat qiladi.

"Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Yovvoyi hayvonlar — quruqlikda, suvda, atmosferada va tuproqda yashaydigan, xonakilashtirilmagan umurtqasizlar, baliqlar, ham quruqlikda, ham suvda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar;

Yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati mahsulotlari — yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati natijasida hosil bo'lgan asal, yog', go'sht, sut, tuxum, mum, uvuldiriq, zahar, safro, mo'yna, shoxlar, patlar, terilar va boshqa mahsulotlar;

Zoologiya kolleksiyasi — yovvoyi hayvonlarning ilmiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga molik jonsiz eksponatlarining

tizimlashtirilgan to‘plami (yovvoyi hayvonlar tulumlarining va yashash faoliyati mahsulotlarining namunalari), shuningdek yarim erkin sharoitda, sun’iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda (tabiiy pitomniklarda, hayvonot bog‘larida, sirklarda, terrariumlarda, akvariumlarda va boshqa joylarda) saqlanayotgan yovvoyi hayvonlarning tirik kolleksiyalari;

Hayvonot dunyosi — O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan barcha turdagи yovvoyi hayvonlar majmui;

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish — yovvoyi hayvonlarning barqaror yashash sharoitlarini ta’minalashga, ularning tabiiy galalari va populyatsiyalarini saqlab qolishga, ularning yo‘q qilib yuborilishining yoki ularga boshqacha zararli ta’sir ko‘rsatilishining oldini olishga qaratilgan faoliyat;

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlar — yovvoyi hayvonlarni saqlab qolish, tiklash va takror ko‘paytirishga, ularning yashash muhitini, urchish joylari va ko‘chib o‘tish yo‘llarini saqlab qolishga, ov qilish va baliq ovlash joylari mahsuldorligini oshirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmui.

Shu bilan birga hayvonot olami muhofazasi amalda ham qóllaniladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" orqali amalga oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi.

Turlarni Muhofaza Qilishning Ahmiyati

O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi — mamlakat hududida yashovchi eng noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvon turlarining izohli ro‘yxatini taqdim etuvchi rasmiy davlat hujjatidir. Bu hujjat, shuningdek, har bir turning tarqalish hududi va holati to‘g‘risida umumlashtirilgan ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Qizil Kitobi turlarining hozirgi holati, asosan, populyatsiyaning qisqarishiga olib kelayotgan omillarni ko‘rsatadi, shu sababli ularni saqlash va ko‘paytirish uchun bir qator choralar ko‘rilmoxda.

Qizil Kitobga kiritilgan o‘simlik va hayvon turlari butun respublika bo‘ylab alohida muhofaza qilinadi. Bu muhofaza qilish choralari, nafaqat tabiatni, balki ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ular,

shuningdek, zamonaviy ekologik muammolar, jumladan, inson faoliyati va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siridan himoyalanishga yordam beradi.

“O‘zbekiston Qizil kitobi” nashri 1979-yilda SSSR respublikasi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, 1984-yilda nashr etilgan. U noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi o‘simliklarning 163 turi va umurtqali hayvonlarning 63 turini o‘z ichiga olgan. Ushbu kitobning maqsadi, O‘zbekistonning tabiiy boyliklarini himoya qilish va ularga bo‘lgan xavfni xususiy lashtirishdir.

“O‘zbekiston Qizil kitobi”ning 1993-yildagi birinchi nashriga 301 o‘simlik turi kiritildi. Kitob o‘zbek va rus tillarida nashr etilib, unda har bir turning o‘zbek, rus va lotin tillaridagi nomlari, poligonlarning qisqarishi va sonining kamayish sabablari haqida ma'lumotlar, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar keltirilgan. Shuningdek, turlar tarqalish xaritalari va tasvirlari ham o‘rin olgan.

2003-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston Qizil kitobi”ning ikkinchi nashrida yangi ma'lumotlar, o‘simlik va hayvonot dunyosining yangi turlari haqidagi ma'lumotlar kiritildi. 2006-yilda “O‘zbekiston o‘simliklari Qizil kitobi”ning uchinchi nashri, 2010-yilda esa to‘rtinchchi nashri chop etildi. Ushbu nashrda 184 turdagи hayvonlar kiritilgan. Ulardan 77 turini umurtqasiz hayvonlar (halqali qurtlar, mollyuskalar, qo‘shtoyoqlar), 18 turdagи baliqlar, 16 turdagи sudralib yuruvchilar, 48 turdagи qushlar va 25 turdagи sutemizuvchilar tashkil etadi.

“O‘zbekiston Qizil kitobi”da, shuningdek, Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi (XTMQI) tomonidan Qizil ro‘yxatga kiritilgan, ammo O‘zbekiston hududida yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lmagan turlar ham ko‘rsatilgan. Kitobda ko‘plab taniqli ilmiy xodimlar tomonidan chizilgan rasmlar va suratlar, jumladan, V.L. Kazenasa, A.V-A.Kreysberga, I.M.Mirabdullayeva va boshqalar tomonidan yozilgan asarlari mavjud.

Shunday qilib, “O‘zbekiston Qizil kitobi” nafaqat mamlakatdagi tabiatni saqlashga, balki butun dunyoda tabiatni asrash va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan turlarga bo‘lgan e’tibor va talabni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Qizil kitobga kiritilgan va boshqa hayvonlar va o'simliklarni muhofaza qilish va ko'paytirish maqsadida qo'riqxona, milliy bog' va boshqa eko markazlar tashkil etilgan. Bulardan biri Buxoro viloyatida joylashgan "Jayron" ixtisoslashtirilgan pitomnigi. "Jayron" Buxoro ixtisoslashgan pitomnigi — Buxoro viloyatida Kogon shahri janubidagi Momojurgoti platosi etagida joylashgan. O'rta Osiyoda noyob cho'l hayvonlarini ko'paytirish ishlarini olib borish va reintroduksiyalashga ixtisoslashtirilgan ilmiy markaz. Bu yerda mamlakatimizdagi yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar turlari va noyob yovvoyi landshaftlar bor.

Yana bir "Qizil kitob" ga kiritilgan jonzotlardan biri Amudaryo qilquyrug'idir.

Amudaryo katta kurakburuni tabiatan kamyob baliq bo'lib, hozirda faqat Amudaryoning o'rta va quyi oqimida uchraydi. So'nggi yillarda uning soni kamayib bormoqda. Bunga tartibsiz ovlanishi, yashash muhitining o'zgarishi, daryo suvidan sug'orish maqsadida foydalanish, daryoga tashlama suvlarning quyilishi va shu sababli daryo suvi kimyoviy tarkibining o'zgarishi asosiy omillar hisoblanadi.

Amudaryo katta kurakburuni O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonning Qizil kitoblariga kiritilgan. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) tomonidan "Butunlay yo'q bo'lib ketish arafasidagi turlar" (CR) maqomi bilan qizil ro'yxatga kiritilgan. Bugungi kunda ushbu baliqni ovlash mutlaqo taqiqlangan. U Qizilqum, Surxon qo'riqxonalarida va Quyi Amudaryo biosfera rezervatining qo'riqlanadigan hududida muhofazaga olingan. Shuningdek, 1998-yildan boshlab, SITES ning II ilovasiga kiritilgan.

Ushbu ma'lumotlar "O'zbekiston Qizil kitobi"ning aktual nashrlarida, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida o'rganilmoqda. Amudaryo katta kurakburunining saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi uchun ko'rilgan harakatlar esa bu noyob baliq turining saqlanishiga muhim hissa qo'shmaqda.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatlarni yaxshilash va bioxilmassillikni saqlab qolish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yovvoyi hayvonlarning barqaror yashashi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, ayniqsa, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni saqlashga qaratilgan faoliyatni kuchaytiradi. Yovvoyi hayvonlarni saqlash, ularni o'z tabiiy muhitida himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanish, nafaqat tabiatni, balki ekologik muvozanatni saqlash uchun zarur. Bunday tadbirlar hayvonot dunyosining yashash sharoitlarini ta'minlaydi va tabiatni asrashda katta rol o'ynaydi.

"O'zbekiston Qizil Kitobi" esa, mamlakat hududida yashovchi eng noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvon turlarini himoya qilish bo'yicha muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Bu kitobda keltirilgan turlarni saqlash, ularga qarshi qilingan zararli omillarni bartaraf etish va bu turlarni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish borasidagi chora-tadbirlar tabiatni asrashning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan saqlash tadbirlari, ayniqsa, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan baliq va yovvoyi hayvon turlarining barqaror yashashini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Shunday qilib, ekologik ta'sirlarning oldini olish, hayvonlar turlarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish orqali mamlakatimizda tabiiy boyliklarni asrash va ekologik muvozanatni tiklash mumkin. Bu esa, yurtimizning ekologik sog'lomligini va bioxilmassillikni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan asosiy omil hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"i
2. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
3. Birstein, V.J.; J.R. Waldman; and W.E. Bemis, editors. Sturgeon biodiversity and conservation. Kluwer Academic Publishing, 1997 — pp. 377–378, 381–382-betlar.